

## **Jizzax viloyat statistika boshqarmasining belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2023-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar**

Navbatdagi Kengash yig’ilishida, Davlat statistikasini tubdan takomillashtirish yuzasidan amaldagi qonunchilik hujjatlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati farmon va qarorlarida belgilab berilgan vazifalarni so’zsiz bajarilishini ta’minlash hamda unga muvofiq davlat statistika ishlari ijrosi, statistika uslubiyatini takomillashtirish, davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, joylardagi ijro hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish borasida belgilangan vazifalarning 2023 yil o’tgan 1-chorak yakuni ijrosi bo’yicha tizim organlari faoliyati natijalarining tanqidiy tahlili o’qib eshittirildi.

2023 yilning 1-choragi yakunida amalga oshirilgan statistik ishlar tahlillar bo’yicha ma’ruza qildi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko’ra, viloyatda 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 5 258,6 mlrd. so’mni tashkil etdi. YaHMning o’sish sur’ati o’tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 foizni tashkil etdi.

Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallahishi natijasida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 3 796,8 mlrd. so’mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta’minlanib, ishl ab chiqarish fizik hajm indeksi 2022 yilning tegishli davriga nisbatan 104,0 foizni tashkil etdi.

2023 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiyyajmi 2 816,6 mlrd. so’mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 102,7 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik sohalarda ko’rsatilgan xizmatlar 2 675,9 mlrd. so’mni (102,5 %), ovchilik sohasida ko’rsatilgan xizmatlar 119,9 mlrd. so’mni (101,2 %), o’rmon xo’jaligida 75,6 mlrd. so’mni (100,5 %), baliqchilik xo’jaligida 65,0 mlrd. so’mni (116,3 %) tashkil qildi. Qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o’sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko’rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog’liqidir.

2023 yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiyyajmi 935,5 mlrd. so’mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 120,1 foizni tashkil qildi.

2023 yilning yanvar-mart oylarida 658,8 mlrd. so’mlik qurilish ishlari bajarilib, o’sish sur’ati 2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 100,6 foizni tashkil etdi.

Yuk tashish. Avtomobil transportida 4,4 mln. tonna yuk tashilgan bo’lib, bu 2022 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi. Yuk aylanmasi 176,5 mln.tn-km ni tashkil qildi va 102,5 foizni tashkil etdi.

2023 yilning yanvar-martida chakana savdo tovar aylanmasi 1 560,5 mlrd. so’mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 103,2 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 99,5 mlrd. so’mni va umumiyyajchakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,4 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 135,7 foizni tashkil etib, 246,2 mlrd. so’mga yetdi, umumiyyajchakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 15,8 foizni tashkil qildi.

Umumiyyajtovar aylanmasi hajmida 1 214,8 mlrd. so’m yakka tartibdagi

tadbirkorlar hisobiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2022 yilning shu davriga nisbatan 97,9 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushifoizga teng bo'ldi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023 yilning yanvar-mart oylarida 265,5 mln. AQSh dollarini, jumladan eksport 48,7 mln. AQSh dollarini, import mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasining saldosi minus 168,1 mln. AQSh dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan 13,5 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan minus -181,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat rezidentlari tomonidan tashqi savdo operatsiyalarida jami tovar aylanmasining 73,5 foizi Osiyo davlatlari bilan 26,5 foizi Yevropa davlatlari bilan amalga oshirildi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 47 081 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 28 365 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 60,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarni ng asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (50,2 %), savdo (16,1 %), sanoat (9,8 %) va qurilish (5,1 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 28 767 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 20 620 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxsl arning 71,7 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (26,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,5 %) sanoat (16,1 %) va qurilish (8,3 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i v.v.b Sh.Sharipov yig'ilish davomida kun tartibiga mufoviqu, tizimda Davlat statistika ishlari dasturining ijrosi hamda Kengashning I-yarim yillik ish rejasiga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha boshqarmaning mutasaddilar tomonidan hisobotlar berish jarayonida har bir masalani atroflicha muhokama qilinishini ta'kidladi va kun tartibidagi navbatdagi masala muhokamasiga o'tilishini aytib o'tdi.